



## **TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI REKTORINING B U Y R U G‘ I**

---

12.01.2024

12-um-son

### **Toshkent davlat yuridik universitetining Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasiga 2022-2023, 2023-2024-yillar davomida a’zoligini saqlab qolish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987сон Farmoniga muvofiq, rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta‘lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo‘shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro almashinuvini faollashtirish yuridik ta‘lim va fanni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali, Toshkent davlat yuridik universitetining xalqaro ta‘lim maydonidagi raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida Xalqaro hamkorlik boshqarmasi boshlig‘i F.Umirovning 2023-yilning 27-dekabrdagi №5-01/1257-sonli bildirgisiga muvofiq

### **B U Y U R A M A N:**

1. Toshkent davlat yuridik universitetining YuNESKO boshchiligidagi tashkil etilgan jahon oliy ta‘lim hamjamiyatiga a‘zolikka asoslangan “International Assosiation of Universities (IAU)” Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasiga 2022-2023, 2023-2024-yillar davomida a’zolikni saqlab qolish uchun a’zolik badali to‘lovini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklif ma’qullansin.
2. Buxgalteriya (M.Parpiyev) Toshkent davlat yuridik universitetining Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasiga 2022-2023, 2023-2024-yillar davomida a’zolikni saqlab qolish uchun a’zolik to‘lovini Xalqaro hamkorlik boshqarmasi boshlig‘i F.Umirovning 2023-yilning 27-dekabrdagi №5-01/1257-sonli bildirgisi ilovasidagi xarajatlar smetasiga asosan universitetning budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplanishini ta‘minlasin.

3.Moliya-iqtisod ishlar bo'yicha prorektor (A.Iminov) universitet a'zolik to'lovini universitetning budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishini nazorat qilsin.

4.Mazkur buyruq ijrosini o'z zimmamda qoldiraman.

**Rektor v.v.b.**



**I.RUSTAMBEKOV**

Toshkent shahar

**Kiritildi:**

Boshqarma boshlig‘i

F.UMIROV

**Kelishildi:**Moliya-iqtisod ishlar bo‘yicha  
prorektor

A.IMINOV



Bosh buxgalter

M.PARPIYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo‘yicha prorektor

B.XODJAYEV



Devonxona mudiri

X.ABDULLAYEV



Katta yuriskonsult

A.TURSUNOV

